

## Sirdaryo viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari <sup>1</sup>

2026- yil yanvar oyi


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasini hududlar kesimida rivojlanishi
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

### I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2026-yil yanvar oyida dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda, bozor xizmatlari hajmi **1 027,6** mlrd so'mni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,3** % ni tashkil etib, hajmi **157,6** mlrd so'mga oshishi qayd etildi.

**Ma'lumot uchun:** 2025-yilda xizmatlar hajmi **870,0** mlrd so'mni, o'sish sur'ati esa **110,3** % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati dinamikasi



2025-yilga nisbatan (**943,2** ming so'm) 2026-yilning mos davrida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **151,6** ming so'mga yoki **9,3** % ga o'sib, **1 094,8** ming so'mni tashkil etdi.

2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **660,5** mlrd so'mni yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **64,3** % ni, jumladan, **39,9** % ni kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etdi.

<sup>1</sup> 2025- yil hajmi va 2026- yil yanvar oyi uchun ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalarini hisobga olgan holda shakllantirilgan.

## II. Xizmatlar sohasini tuman va shaharlar kesimida rivojlanishi

Xizmatlar sohasining tuman va shaharlar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlari  
2026-yil yanvar oyi

|                                       | Hajmi, mlrd so'm | Ulushi, %    | O'sish sur'ati, % |
|---------------------------------------|------------------|--------------|-------------------|
| <b>Sirdaryo viloyati <sup>2</sup></b> | <b>1 027,6</b>   | <b>100,0</b> | <b>111,3</b>      |
| <i>shaharlar:</i>                     |                  |              |                   |
| Guliston                              | 309,0            | 30,1         | 112,5             |
| Shirin                                | 12,3             | 1,2          | 110,0             |
| Yangiyer                              | 50,9             | 5,0          | 113,8             |
| <i>tumanlar:</i>                      |                  |              |                   |
| Boyovut                               | 60,1             | 5,8          | 93,9              |
| Guliston                              | 30,4             | 3,0          | 109,6             |
| Mirzaobod                             | 33,8             | 3,3          | 108,6             |
| Oqoltin                               | 26,4             | 2,6          | 110,0             |
| Sardoba                               | 32,9             | 3,2          | 111,0             |
| Sayxunobod                            | 28,3             | 2,8          | 106,2             |
| Sirdaryo                              | 104,3            | 10,2         | 108,6             |
| Xovos                                 | 35,0             | 3,4          | 110,5             |

### Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hududlar kesimidagi hajmi](#)

Guliston shahrining yuqori ulushi (**30,1%**) uning markaz maqomi bilan izohlanadi, u Sirdaryo viloyatining eng yirik shahridir. Markazda davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, banklar va yirik kompaniyalar jamlangan bo'lib, tabiiyki, aholi zichligi transport, savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish kabilarga bo'lgan talabni oshiradi. Guliston rivojlangan transport tizimi, savdo va biznes markazlari hamda boshqa yirik obyektlarga ega shahar, bu esa xizmatlar sohasining tobora rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi.

## III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-78-son qarorida mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, shuningdek, sohada faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda uning monitoringini yuritish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

<sup>2</sup> Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlar (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga hisssasi **2,4** bandni tashkil etdi), yashash va ovqatlanish xizmatlari **16,3** % ga (o'sishiga hisssasi **3,7** bandni tashkil etdi), savdo xizmatlari **12,5** % ga (o'sishiga hisssasi **2,1** band), transport xizmatlari **11,3** % ga (o'sishiga hisssasi **1,3** band), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **7,8** % ga (o'sishiga hisssasi **0,4** band) va sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar **19,6** % ga (o'sishiga qo'shgan hisssasi **0,5** band) asosiy omili bo'lib hisoblanadi.

**Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari (yanvar oyi)**

|                                                                                              | Hajmi, mlrd so'm |                | O'sish sur'ati,<br>% |
|----------------------------------------------------------------------------------------------|------------------|----------------|----------------------|
|                                                                                              | 2025- y.         | 2026- y.       |                      |
| <b>Xizmatlar – jami</b>                                                                      | <b>870,0</b>     | <b>1 027,6</b> | <b>111,3</b>         |
| <i>shundan:</i>                                                                              |                  |                |                      |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari                                                        | 45,4             | 55,6           | 107,8                |
| moliyaviy xizmatlar                                                                          | 185,7            | 216,0          | 111,0                |
| transport xizmatlari                                                                         | 101,9            | 123,0          | 111,3                |
| <i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>                                                | <i>93,7</i>      | <i>113,1</i>   | <i>109,3</i>         |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari                                                            | 197,6            | 243,3          | 116,3                |
| savdo xizmatlari                                                                             | 144,3            | 169,1          | 112,5                |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar                                                        | 21,3             | 23,7           | 110,8                |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar                                                                  | 23,3             | 25,9           | 107,1                |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar                                                       | 24,2             | 30,3           | 119,6                |
| ijara xizmatlari                                                                             | 14,0             | 16,4           | 109,4                |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni<br>ta'mirlash bo'yicha xizmatlar                          | 18,0             | 21,6           | 117,3                |
| shaxsiy xizmatlar                                                                            | 15,7             | 19,8           | 116,7                |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari,<br>texnik sinovlar va tahlil sohasidagi<br>xizmatlar | 4,7              | 5,5            | 108,1                |
| boshqa xizmatlar                                                                             | 73,9             | 77,4           | 94,7                 |


**Mavzu bo'yicha ko'rsatkichlar:**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)

2026-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari **23,7** %, moliyaviy xizmatlar **21,0** %, savdo xizmatlari **16,5** %, transport xizmatlari **12,0** %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **5,4** %, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar esa **3,0** % ulushini tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2025-yilning tahlil qilinayotgan davrida xizmatlarning umumiy hajmida yashash va ovqatlanish xizmatlari **22,7** foiz, moliyaviy xizmatlar **21,3** foiz, savdo xizmatlari **16,6** foiz, transport xizmatlari **11,7** foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **5,2** foiz, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar esa **2,8** foiz ulushni tashkil etgan.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining asosiy turlari bo'yicha tarkibi  
2026-yil yanvar oyi, %



**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari** hajmining o'sishiga **telekommunikatsiya xizmatlarining** o'sishi ta'sir ko'rsatdi. 2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida ushbu turdagi xizmatlarning aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **76,2** foizni tashkil etdi. 2025-yilning mos davriga nisbatan esa **3,2** foizga o'sgan.

2026-yilning yanvar oyida **sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda** o'sish kuzatildi. 2025-yilning mos davriga nisbatan hajmi **6,1** mlrd so'mga yoki **19,6** foizga o'sishi kuzatildi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati dinamikasi



2026-yilning tahlil qilinayotgan davrida **moliyaviy (111,0 %) xizmatlarida** yuqori o'sish sur'ati qayd etildi. 2026-yilning yanvar oyida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlari salmoqli qismni egallaydi. Ularning ulushi **92,7** foizni tashkil etdi.

O'zbekistonda **yashash va ovqatlanish xizmatlarining** rivojlanishi sezilarli o'sishni ko'rsatmoqda, bu sayyohlar oqimining ko'payishi, ishbilarmonlik aloqalarining kengayishi va mamlakatda infratuzilmaning yaxshilanishi bilan keskin bog'liqdir. Ushbu xizmatlarning o'sishiga **oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** hajmining oshishi ta'sir ko'rsatdi, yashash va ovqatlanish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **98,6** % ni tashkil etdi. 2026-yilning yanvar oyida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati **116,2** % ni tashkil etdi.

#### **IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar**

##### **Xizmatlarning har oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:**

a) tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar bo'yicha statistik hisobot (ro'yxat bo'yicha);

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu** – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha xizmatlar ko'rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida** ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha **hisoblangan to'lovlar qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz** hisobga olinadi.

Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'lagicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda **bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi** hisoblanadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

**Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar** (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.



Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

**Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi** MST bo'yicha tasniflangan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi (G-S seksiyalar) bo'yicha shakllantiriladi.

## **V. Foydali havolalar**

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom](#)

[O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichi \(MST\)](#)

[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning \(tovarlar, ishlar, xizmatlarning\) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil \(kengaytirilgan\) ro'yxati](#)

---

**Chiqarish uchun javobgar:**  
*Xizmatlar va savdo sohasi  
statistikasi bo'limi*

**Manzil:** 120100, Guliston,  
Birlashgan ko'chasi, 62-uy  
**Pochta:** info@sirstat.uz  
**Tel.:** 67-236-70-00  
**Ichki:** 20-90